

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№3

2026
MART



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 49 sahifa.
2026-yil, mart

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

KORXONALARDA ICHKI AUDIT TIZIMINING BOSHQARUV QARORLARI QABUL QILISHDAGI O'RNI	24
Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li	
FISKAL SIYOSAT SAMARADORLIGI VA SOLIQ TUSHUMLARI DINAMIKASI: O'ZBEKISTON MISOLIDA ILMIY TAHLIL	30
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI KELITIRIB CHIQUARUVCHI ASOSIY OMILLAR HAMDA IQTISODIYOTGA TA'SIRI	37
Toxtabayev Oybek Odilovich	
QISHLOQ XO'JALIGI OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA ZAMONAVIY BOSHQARUV	42
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	



QISHLOQ XO'JALIGI OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA ZAMONAVIY BOSHQARUV

Rasulova Muxabbat Teshabayevna

Toshkent davlat agrar universiteti katta o'qituvchisi

Normurodov Sarvar Norboy o'g'li

Toshkent davlat agrar universiteti katta o'qituvchisi

Orcid: 0009-0009-1241-9339,

E-mail: s.n.normurodov@bk.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada qishloq xo'jaligida oziq-ovqat sanoati korxonalarida zamonaviy boshqaruv tizimini shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Global siyosiy beqarorlik, oziq-ovqat xavfsizligiga tahdidlar hamda ichki bozor barqarorligini ta'minlash zarurati sharoitida agrar soha va qayta ishlash sanoati o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish dolzarb masala sifatida asoslab berilgan. Tadqiqot doirasida 2015–2024-yillar davomida sanoat ishlab chiqarishida oziq-ovqat mahsulotlari ulushining o'zgarish dinamikasi tahlil qilinib, mutlaq o'sish kuzatilgan bo'lsa-da, umumiy sanoat tarkibidagi ulushining pasayish tendensiyasi aniqlangan.

Mazkur holat qishloq xo'jaligida xomashyo yetishtirish samaradorligini oshirish, chuqur qayta ishlash darajasini kengaytirish hamda klasterli yondashuvni rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Maqolada oziq-ovqat sanoati korxonalarini klaster modeli asosida boshqarish, davlat-xususiy sherikchilik mexanizmlarini qo'llash, moddiy oqimlarni yagona tizimga integratsiya qilish, mavsumiylik omilini kamaytirish va strategik salohiyatni baholash masalalari yoritilgan. Shuningdek, raqamli texnologiyalarni joriy etish, inson kapitalini rivojlantirish hamda innovatsion boshqaruv usullarini qo'llash orqali sohaning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat sanoati, zamonaviy boshqaruv, klaster tizimi, agrar-sanoat integratsiyasi, oziq-ovqat xavfsizligi, raqamli texnologiyalar, davlat-xususiy sherikchilik, strategik salohiyat, mavsumiylik omili, iqtisodiy samaradorlik, ichki bozor barqarorligi, innovatsion rivojlanish.

Abstract. This article examines the theoretical and practical aspects of forming a modern management system for food industry enterprises in the agricultural sector. In the context of global political instability, threats to food security, and the need to ensure domestic market stability, the importance of strengthening integration between agriculture and the processing industry is substantiated. The study analyzes the dynamics of the share of food products in total industrial output during 2015–2024. Despite the absolute growth in production, a declining trend in its proportion within the overall industrial structure has been identified.

This situation indicates the need to improve the efficiency of raw material production, expand deep processing, and develop a cluster-based approach. The article addresses the management of food industry enterprises based on the cluster model, the application of public-private partnership mechanisms, integration of material flows into a unified system, reduction of seasonality, and assessment of strategic potential. It also substantiates the opportunities to enhance economic efficiency through the introduction of digital technologies, development of human capital, and implementation of innovative management methods.

Keywords: agriculture, food industry, modern management, cluster system, agro-industrial integration, food security, digital technologies, public-private partnership, strategic potential, seasonality factor, economic efficiency, domestic market stability, innovative development.



Аннотация. В статье исследованы теоретические и практические аспекты формирования современной системы управления предприятиями пищевой промышленности в сельском хозяйстве. В условиях глобальной политической нестабильности, угроз продовольственной безопасности и необходимости обеспечения устойчивости внутреннего рынка обоснована актуальность усиления интеграции между аграрным сектором и перерабатывающей промышленностью. В ходе исследования проанализирована динамика доли продукции пищевой промышленности в общем объеме промышленного производства за 2015–2024 годы. Несмотря на абсолютный рост производства, выявлена тенденция снижения её удельного веса в структуре промышленности.

Данная ситуация свидетельствует о необходимости повышения эффективности производства сырья, расширения глубокой переработки и развития кластерного подхода. Рассмотрены вопросы управления предприятиями пищевой промышленности на основе кластерной модели, применения механизмов государственно-частного партнёрства, интеграции материальных потоков в единую систему, снижения сезонности и оценки стратегического потенциала. Обоснованы возможности повышения экономической эффективности отрасли посредством внедрения цифровых технологий, развития человеческого капитала и использования инновационных методов управления.

Ключевые слова: сельское хозяйство, пищевая промышленность, современное управление, кластерная система, аграрно-промышленная интеграция, продовольственная безопасность, цифровые технологии, государственно-частное партнёрство, стратегический потенциал, сезонный фактор, экономическая эффективность, устойчивость внутреннего рынка, инновационное развитие.

KIRISH

Bugungi kunda jahondagi siyosiy beqarorlik va geosiyosiy ziddiyatlarning kuchayishi birlamchi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, qishloq xo'jaligida xomashyo yetishtirish, mineral o'g'itlar va yoqilg'i ta'minoti, logistika zanjirlaridagi uzilishlar hamda eksport-import cheklavlari ishlab chiqarish hajmining qisqarishiga sabab bo'lmoqda. Shu bois mazkur omillarning salbiy ta'sirini kamaytirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatini samarali boshqarish alohida ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy boshqaruv yondashuvlari, resurslardan oqilona foydalanish, agrotexnologiyalarni joriy etish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish orqali qishloq xo'jaligida barqarorlikni ta'minlash mumkin.

So'nggi yillarda dunyoda ochlik va to'yib ovqatlanmaslikni bartaraf etish yo'lidagi taraqqiyot sur'atlari sekinlashgan. Natijada ayrim aholi qatlamlari yetarli oziq-ovqat bilan ta'minlanishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Jahon oziq-ovqat dasturi ma'lumotlariga ko'ra, 79 mamlakatda 349 million kishi o'tkir oziq-ovqat xavfsizligi muammosiga duch kelmoqda. Bu holat qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini barqaror rivojlantirish va mahalliy oziq-ovqat bazasini mustahkamlash zarurligini yanada kuchaytiradi. Bugungi kunda taraqqiy etgan mamlakatlar milliy iqtisodiyotida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash orqali aholi turmush sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunda qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, innovatsion agroklastlar tashkil etish, suv va yer resurslaridan samarali foydalanish hamda oziq-ovqat sanoati bilan integratsiyani kuchaytirish muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatini yanada rivojlantirishda qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan tarkibiy islohotlar muhim o'rin tutadi. Xususan, "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasi doirasida oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlari bozorlarida taklifni oshirish, mavsumiy taqchilliklarni yumshatish hamda ichki bozorni mahalliy mahsulotlar bilan to'ldirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Strategiyaga ko'ra, 2026-yilga borib oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 7,4 mln tonnaga yetkazish, qishloq xo'jaligi xomashyosini qayta ishlash darajasini sut bo'yicha 32 foizga, go'sht bo'yicha 25 foizga, meva-sabzavot mahsulotlari bo'yicha 28 foizga oshirish rejalashtirilgan. Mazkur ko'rsatkichlar qishloq xo'jaligida yetishtirilayotgan mahsulotlar hajmi va sifatini oshirish, ularni chuqur qayta ishlash hamda qo'shimcha qiymat yaratish bilan bevosita bog'liqdir.

Shuningdek, qishloq xo'jaligida yetishtirilgan mahsulotlar asosida oziq-ovqat zaxiralarini shakllantirish, ichki bozorda intervensiya mexanizmlarini joriy etish, hududiy hokimliklar tomonidan narxlar barqarorligini ta'minlash bo'yicha aniq qoidalarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish nazarda tutilgan. Bu esa agrar ishlab chiqarish va oziq-ovqat sanoati o'rtasidagi integratsiyani yanada mustahkamlaydi.

Hozirgi kunda qishloq xo'jaligida va oziq-ovqat sanoati korxonalarida boshqaruvning klaster tizimi, raqamli texnologiyalar, "aqlli qishloq xo'jaligi" elementlari hamda bozor talablariga moslashuvchan innovatsion yondashuvlarga asoslangan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib



borilmoqda. Ayniqsa, agroklasterni tashkil etish orqali “xomashyo yetishtirish – saqlash – qayta ishlash – realizatsiya” zanjirini yagona tizim asosida boshqarish samaradorlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Amalga oshirilayotgan tadqiqot doirasida oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatini boshqarish masalalari mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan keng o'rganilgan bo'lib, ayniqsa qishloq xo'jaligida xomashyo bazasini mustahkamlash hamda qayta ishlash sanoati bilan integratsiyani kuchaytirish ustuvor yo'nalish sifatida e'tirof etilgan.

Mahalliy olimlardan I.Yu. Umarov tadqiqotlarida hududlarda oziq-ovqat sanoati korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy salohiyati kompleks baholangan, ularning qishloq xo'jaligi bilan o'zaro bog'liqligi, xomashyo yetkazib berish zanjiri samaradorligi hamda hududiy resurslardan foydalanish darajasi tahlil qilingan. Olim tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvlarda agrar sektor va qayta ishlash korxonalari o'rtasidagi kooperatsiyani kuchaytirish orqali ishlab chiqarish barqarorligini ta'minlash mumkinligi asoslab berilgan.

Xorijiy tadqiqotchilar orasida Michael Porter klaster nazariyasini ishlab chiqib, sanoat tarmoqlarini, jumladan oziq-ovqat sanoatini, vertikal va gorizontal integratsiya asosida rivojlantirish samaradorlikni oshirishini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Uning fikricha, klasterlashuv qishloq xo'jaligida xomashyo yetishtirishdan tortib, tayyor mahsulotni bozorga yetkazishgacha bo'lgan zanjirni yagona tizim asosida boshqarish imkonini beradi.

Shuningdek, Robert Grant strategik boshqaruv nazariyalarida korxona resurslari va ichki salohiyatiga tayangan holda raqobat ustunligini shakllantirish mexanizmlarini tahlil qilgan. Mazkur yondashuv oziq-ovqat sanoati korxonalarida, ayniqsa qishloq xo'jaligida mavjud xomashyo resurslaridan samarali foydalanish hamda innovatsion boshqaruv mexanizmlarini joriy etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

M.V. Taradina, N. Protsiuk va O. Gorb kabi tadqiqotchilar sanoat sohasini boshqarishda logistika, mavsumiylik omili, hududiy ixtisoslashuv hamda klasterli rivojlanishning iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini o'rganganlar. Ularning ilmiy ishlanmalarida qishloq xo'jaligida mavsumiy ishlab chiqarish xususiyatlari oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatishi, shu bois zahira yaratish, qayta ishlash quvvatlarini moslashtirish va logistika tizimini optimallashtirish zarurligi ta'kidlangan.

Fikrimizcha, oziq-ovqat sanoati korxonalarini klaster tizimi asosida boshqarish jarayoniga ta'sir etuvchi omillarni, xususan qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish hajmi, mavsumiylik, xomashyo sifati, saqlash va transport infratuzilmasi darajasini kompleks baholash muhimdir. Mavsumiylik omilining ta'sirini kamaytirish, agrar va sanoat tarmoqlari o'rtasida uzluksiz integratsiyani ta'minlash hamda boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish orqali sohaning rivojlanish siklini qisqartirish va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini oshirish mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Mazkur tadqiqotda ma'lumotlar rasmiy statistika manbalari, normativ-huquqiy hujjatlar hamda oziq-ovqat sanoati korxonalari va qishloq xo'jaligida faoliyat yurituvchi subyektlarning hisobot ko'rsatkichlari asosida shakllantirildi. Shuningdek, agrar tarmoqda xomashyo yetishtirish hajmi, hosildorlik darajasi, qayta ishlash ko'rsatkichlari hamda ichki bozor ta'minoti bilan bog'liq ma'lumotlar kompleks tarzda o'rganildi.

Olingan ma'lumotlar dinamik qatorlar tahlili, taqqoslash, ulush va nisbat ko'rsatkichlarini hisoblash usullari orqali qayta ishlanib, oziq-ovqat sanoati hamda qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, rivojlanish tendensiyalari va tarkibiy o'zgarishlar baholandi. Bunda agrar tarmoqda yetishtirilayotgan mahsulotlar hajmining qayta ishlash sanoatiga ta'siri, mavsumiylik omili hamda hududiy ixtisoslashuv darajasi alohida tahlil qilindi.

Shuningdek, oziq-ovqat sanoati korxonalarini klaster modeli asosida boshqarish samaradorligi mantiqiy tahlil, tizimli yondashuv va umumlashtirish usullari asosida asoslab berildi. Klasterlashuvning qishloq xo'jaligida “xomashyo yetishtirish – saqlash – qayta ishlash – realizatsiya” zanjiri uzluksizligini ta'minlashdagi ahamiyati baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

2015–2024-yillar oralig'ida mamlakatimiz sanoat ishlab chiqarishida oziq-ovqat sanoati ulushining o'zgarish dinamikasi hamda qishloq xo'jaligida yetishtirilgan mahsulotlar hajmining qayta ishlash sanoatiga ta'siri tahlil qilindi. Ishlab chiqarilayotgan iste'mol tovarlari tarkibida oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'atlarini aniqlash orqali me'yoriy muvozanatni ta'minlash, ichki bozor barqarorligini mustahkamlash va agrar-sanoat integratsiyasining samaradorligini baholash imkoniyati yaratildi (1-rasm).



1-rasm. "Qishloq xo'jaligida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning rivojlanishi

Ushbu tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda mamlakatimizda sanoat ishlab chiqarishining umumiy o'sish sur'atlari ayrim davrlarda sekinlashgan bo'lsa-da, uning tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish barqaror rivojlanishda davom etgan. Bu jarayon, avvalo, qishloq xo'jaligida xomashyo yetishtirish hajmining kengayishi, agrar sohada amalga oshirilayotgan islohotlar hamda qayta ishlash quvvatlarining oshirilishi bilan bevosita bog'liqdir.

Xususan, sanoat mahsulotlari hajmining izchil oshib borishi aholining oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabining ortishi bilan izohlanadi. 2015–2024-yillar oralig'ida jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi qariyb 9,01 martaga oshgan. Jumladan, 2015-yilda 97 598,2 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 880 198,5 mlrd so'mga yetgan. Biroq oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi mutlaq miqdorda oshgan bo'lsa-da, uning umumiy sanoat tarkibidagi ulushi kamayish tendensiyasini namoyon etgan. Masalan, 2015-yilda oziq-ovqat mahsulotlarining sanoatdagi ulushi 18,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 11,7 foizni tashkil etgan. Demak, tahlil qilinayotgan davrda oziq-ovqat ishlab chiqarish hajmi 9,01 marta oshganiga qaramay, umumiy sanoat tarkibidagi ulushi 7,2 foiz bandga qisqargan. Bu esa boshqa sanoat tarmoqlari nisbatan tezroq sur'atlarda rivojlanganini ko'rsatadi.

Mazkur holatni qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish hajmi, hosildorlik darajasi, xomashyo yetkazib berish uzluksizligi hamda qayta ishlash darajasi bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilish zarur. Chunki agrar sohada yetishtirilayotgan mahsulotlar hajmi va sifati oziq-ovqat sanoati korxonalarining ishlab chiqarish ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, jami sanoat mahsulotlari o'sish ko'rsatkichi 2015-yilda 107,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2018-yilda eng yuqori darajaga ko'tarilgan va 2024-yilda ham o'rtacha dinamikadan pastga tushmagan. Oziq-ovqat sanoati esa nisbatan pastroq o'sish sur'atlarini namoyon etgan. Bu holat qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirish samaradorligini oshirish, chuqur qayta ishlash darajasini kengaytirish hamda qo'shimcha qiymat yaratish zarurligini anglatadi.

Shu nuqtai nazardan, oziq-ovqat sanoati korxonalari hamda qishloq xo'jaligida faoliyat yurituvchi subyektlar o'rtasida klasterli yondashuvni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat-xususiy sherikchilik mexanizmi asosida klaster doirasida moddiy oqimlarni — xomashyo yetishtirish, saqlash, qayta ishlash va realizatsiya jarayonlarini yagona tizimga integratsiya qilish orqali samarali boshqaruvni yo'lga qo'yish mumkin. Natijada qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish barqarorligini ta'minlash, oziq-ovqat sanoati korxonalarining rentabelligini oshirish hamda ichki bozorda narxlar muvozanatini saqlash uchun mustahkam tashkiliy-iqtisodiy mexanizm shakllanadi.

Klaster faoliyatida ishtirok etuvchi bir nechta hamkorlar o'rtasidagi biznes-jarayonlarni boshqarish tashkiliy hamkorlik asosida hal etiladigan muhim masalalardan biridir. Bunday hamkorlikning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- barcha darajadagi ishtirokchilarning yaqin hamkorligi;
- hamkorlikka o'zaro manfaatdorlik;

- biznes yuritish etikasi va mas’uliyat;
- uzoq muddatli hamkorlik munosabatlarining shakllanishi;
- o’zaro ishonch va ochiqlik tamoyillarining mavjudligi.

Klaster tuzilmalarida munosabatlar nafaqat alohida ishtirokchilar o’rtasida, balki butun guruh doirasida bir vaqtning o’zida shakllanadi, bu esa boshqaruv funksiyalarini muvofiqlashtirish imkonini beradi. Klaster uchun tizimni birlashtirish xususiyati eng muhim jihat bo’lib, uning barqarorligi klasteri shakllantiruvchi omillarning mavjudligi va salohiyatiga bog’liqdir.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-maydagi O’RQ–537-son “Davlat-xususiy sheriklik to’g’risida”gi Qonuni asosida oziq-ovqat sanoati sohasida tashkil etilishi taklif etilayotgan “Davlat-xususiy sherikchiligi asosidagi oziq-ovqat sanoati korxonalari klasteri” faoliyati davlat-xususiy sheriklik tamoyiliga tayangan holda yetkazib berish tizimini shakllantirishga qaratilgan. Mazkur klaster oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va taqsimlash jarayonlarini yagona tizim asosida tashkil etib, respublika hududida yashovchi iste’molchilarning ehtiyojlarini qondirishni ko’zda tutadi.

Taklif etilayotgan klasterning markaziy subyekti sheriklar — mahalliy davlat boshqaruvi organlari vakillari, xususiy tadbirkorlar hamda iste’molchilar vakillarining ulushiga asoslangan shirkat yoki hissadorlik jamiyati shaklida tashkil etilishi mumkin. Qarorlar qabul qilish jarayonida barcha tomonlarning ishtirok etishi ishlab chiqarish, taqsimlash va iste’mol jarayonlarida manfaatlar muvozanatini ta’minlaydi.

Mazkur klasterning muhim jihati shundaki, u bozor mexanizmlari asosida faoliyat yuritadi hamda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi mavsumiylik ta’sirini yumshatishga xizmat qiladi. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-martdagi PQ–4246-son “O’zbekiston Respublikasida bog’dorchilik va issiqxona xo’jaligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qaroriga muvofiq, issiqxona va saqlash obyektlarini qurish katta moliyaviy resurslarni talab qiladi. Aynan shu jarayonda davlat-xususiy sheriklik mexanizmi zarur moliyaviy resurslarning bir qismini jalb etish imkonini beradi.

Umuman olganda, davlat-xususiy sheriklik asosidagi oziq-ovqat sanoati korxonalari klasterida davlatning ishtiroki uch asosiy yo’nalishda namoyon bo’ladi:

1. Iste’molchilarning daromadlari va ishlab chiqarish xarajatlarini inobatga olgan holda ulgurji va chakana narxlarni shakllantirish jarayonida ishtirok etish.
2. Ishlab chiqarish infratuzilmasini (korxona, issiqxona, muzlatgich omborlari va boshqa obyektlar) yaratishda moliyaviy ko’mak berish.
3. Oziq-ovqat mahsulotlari sifat me’yorlari va standartlarini ishlab chiqish hamda ularning bajarilishini nazorat qilish.

Shuningdek, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-yanvardagi 37-sonli “Respublikada oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarini yanada qo’llab-quvvatlash to’g’risida”gi qaroriga muvofiq, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo’yicha yangi istiqbolli loyihalarning infratuzilmasini yaratish bilan bog’liq xarajatlarning 50 foizi, biroq har bir loyiha uchun 100 mln so’m dan ortiq bo’lmagan miqdorda qoplab berilishi nazarda tutilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimizda oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatini boshqarish mexanizmiga ta’sir etuvchi omillar va ularning o’ziga xos xususiyatlarini, ayniqsa qishloq xo’jaligida amalga oshirilayotgan islohotlar bilan uzviy bog’liqlikda tadqiq etish asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- Oziq-ovqat mahsulotlariga bo’lgan ehtiyoj doimiy ravishda yuqori bo’lib, kelgusida ham ortib borishi kutilmoqda. Shu bois nafaqat oziq-ovqat sanoati korxonalari, balki qishloq xo’jaligida xomashyo yetishtiruvchi tadbirkorlik subyektlari faoliyatini ham izchil rivojlantirish zarur.

- Oziq-ovqat korxonalarining asosiy xomashyo manbai bo’lgan qishloq xo’jaligida kichik sanoat va qayta ishlash korxonalarini davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash, ularga moliyaviy, soliq va infratuzilmaviy imtiyozlar yaratish orqali agrar-sanoat integratsiyasini kuchaytirish maqsadga muvofiq.

- Oziq-ovqat sanoati korxonalarining ishlab chiqarish salohiyati, bilim va malakasini oshirish tizimini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish bilan bir qatorda, qishloq xo’jaligida agroteknologiyalarni, resurs tejovchi usullarni hamda raqamli boshqaruv tizimlarini keng joriy etish lozim.

- Tadqiqot davomida klaster tarkibidagi korxonalar, ta’minotchilar va agrar soha subyektlari o’rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni shakllantirish hamda ularning samarali faoliyatini ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan “oziq-ovqat sanoati korxonalari klasteri” modeli amaliy jihatdan asoslab berildi. Mazkur model qishloq xo’jaligida xomashyo yetishtirishdan boshlab, uni saqlash, qayta ishlash va realizatsiya qilishgacha bo’lgan jarayonni yagona tizim asosida boshqarishga xizmat qiladi.

- “Oziq-ovqat sanoati korxonalari klasteri” tizimini amaliyotda tashkil etish samaradorligini baholashda hududlarda inson kapitalining rivojlanish darajasi, qishloq xo’jaligida mehnat unumdorligi, klasterning hudud



iqtisodiyotiga ta'siri, investitsion va innovatsion faollik, tashqi iqtisodiy aloqalar rivoji, raqobat muhiti hamda ishbilarmonlik sharoitini kompleks tahlil qilish zarur.

• Oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi strategik salohiyat ko'rsatkichi korxonaga tegishli moddiy va nomoddiy resurslar bilan bir qatorda, qishloq xo'jaligida mavjud xomashyo bazasi, yer va suv resurslari, logistika infratuzilmasi hamda ulardan samarali foydalanish imkoniyatlari asosida baholanishi maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, qishloq xo'jaligida barqaror ishlab chiqarish tizimini shakllantirish va oziq-ovqat sanoati bilan integratsiyani chuqurlashtirish orqali sohaning iqtisodiy samaradorligi, raqobatbardoshligi hamda ichki bozor barqarorligini ta'minlash imkoniyati kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karieyva G.A., Normurodov S.N. Qishloq xo'jaligida resurslardan samarali foydalanish va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda menejment qarorlarining iqtisodiy tahlili // Yashil iqtisodiyot & taraqqiyot: ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy-ommabop jurnal. – 2025. – № 10. – B. 981–988. – URL: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
2. Ziyavitdinova N.M. Oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish: diss. ... i.f.n. – Buxoro: Buxoro oziq-ovqat va yengil sanoat texnologiyasi instituti, 2006. – 155 b.
3. Mamadiyarov D.U., Normurodov S.N. Qishloq xo'jaligida resurslardan samarali foydalanishni boshqarishning iqtisodiy va buxgalterlik jihatlari // Agroiqtisodiyot: ilmiy-amaliy agroiqtisodiy jurnal. – 2025. – № 3. – B. 159–162. – URL: <http://www.oqxssrtxm.uz>; <https://t.me/agroiqtisodiyot>
4. Полухин А.А. Организационно-экономический механизм модернизации сельского хозяйства России // Аграрная Россия. – 2012. – № 5. – С. 23–29.
5. Normurodov S.N. O'zbekiston iqtisodiyotida oziq-ovqatni rivojlantirishda qishloq xo'jaligining roli // Agrobiznes, fan va texnologiyalar: ilmiy-amaliy elektron jurnal. – 2025. – № 6. – B. 224–231. – URL: <https://agrobiznesjournal.uz/uz>
6. Normurodov S.N., Ziyadullayev I.N., Xoliqov S.O., Abdullayev O.A., Dilmurodov H. F. The role of agriculture in Uzbekistan's food economy // IOP Conference Series: Earth and Environmental Science. – 2025. – Vol. 1535. – 012028. – P. 1–10. – DOI: 10.1088/1755-1315/1535/1/012028. – URL: <https://iopscience.iop.org/article/10.1088/1755-1315/1535/1/012028>
7. Umarov I.Yu. Oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish (Andijon viloyati misolida): diss. ... i.f.n. – Andijon: Andijon mashinasozlik instituti, 2009. – 149 b.
8. Mamadiyarov D.U., Normurodov S.N. Qishloq xo'jaligi korxonalarda xarajatlarni boshqarish va hisobga olishning innovatsion usullari: menejment va buxgalteriyaning o'zaro integratsiyasi // Yashil iqtisodiyot & taraqqiyot: ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy-ommabop jurnal. – 2025. – № 10. – B. 742–747. – URL: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
9. Mamadiyarov D.U., Normurodov S.N. Qishloq xo'jaligi korxonalarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari va muammolari // Yashil iqtisodiyot & taraqqiyot: ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy-ommabop jurnal. – 2025. – № 7. – B. 463–467. – URL: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
10. Mamadiyarov D.U., Normurodov S.N. Qishloq xo'jaligini innovatsion texnologiyalar asosida boshqarish // Yashil iqtisodiyot & taraqqiyot: ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy-ommabop jurnal. – 2025. – № 6. – B. 775–779. – URL: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
11. Normurodov S.N. Qishloq xo'jaligida biznesni boshqarish // Agrobiznes, fan va texnologiyalar: ilmiy-amaliy elektron jurnal. – 2025. – № 2. – B. 348–359. – URL: <https://agrobiznesjournal.uz/uz>
12. Toshboyev A.J., Siddiqov Z.T., Normurodov S.N. Qishloq xo'jaligini innovatsion texnologiyalar asosida boshqarish // Agrobiznes, fan va texnologiyalar: ilmiy-amaliy elektron jurnal. – 2025. – № 1. – B. 15–21. – URL: <https://agrobiznesjournal.uz/uz>
13. Kasimov B.S., Safarov A.A., Normurodov S.N. O'zbekiston iqtisodiyotida qishloq xo'jaligining roli // Agrobiznes, fan va texnologiyalar: ilmiy-amaliy elektron jurnal. – 2025. – № 1. – B. 292–299. – URL: <https://agrobiznesjournal.uz/uz>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100